



100184 Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi  
"Shahidlar xotirasi" memorial complex, Amir Temur street, Tashkent, 100184  
Tel: (55) 515-37-15 Web site: [www.muzey-xotira.uz](http://www.muzey-xotira.uz) E-mail: [markaz.muzey@umail.uz](mailto:markaz.muzey@umail.uz) e-xat manzili: [mx@exat.uz](mailto:mx@exat.uz)  
telegram manzil: @Muzey\_Xotira

№ 39

«24» 024 2026-yil

Oriental universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlari" kafedrası "Tarix" yo'nalishining magistranti Raximova Umidaxon Tursunaliyevnaning "Mustabid tuzum davri qatag'onining Namangandagi shohidlari: arxitektura va odamlar" nomli xalqaro grant loyihasida ishtirok etganligi to'g'risida

### MA'LUMOTNOMA

Zamonaviy tarixshunoslikda mustabid tuzum davri qatag'onlari, ularning mahalliy aholi hayotiga ko'rsatgan ta'siri hamda tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bog'liq merosni ilmiy tarzda o'rganish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda xalqaro tashkilotlar, ilmiy muassasalar va mahalliy tadqiqotchilar hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihalar mazkur sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va nufuzli xorijiy hamkorlar tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan grant loyihalar O'zbekistonning turli hududlarida saqlanib qolgan tarixiy majmualar va ular bilan bog'liq voqealar xronologiyasini chuqur o'rganish imkonini bermoqda. Ushbu jarayonda akademik salohiyatga ega mutaxassislarining ishtiroki, ilmiy yondashuvi va tahliliy xulosalari loyihaning mazmun-mohiyatini boyitib, o'rganilayotgan mavzuning ilmiy qiymatini oshirmoqda. Bu borada Oriental universitetining professor-o'qituvchi va magistrantlari ham faol tarzda ishtirok etib kelmoqda.

Xususan, Oriental universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasining dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizining bevosita ilmiy raxbarligi ostidagi magistratura bosqichi talabasi Raximova Umidaxon Tursunaliyevna ham Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va Germaniyaning Konrad Adenauer nomidagi fondning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik doirasida amalga oshirilgan "**Mustabid tuzum davri qatag'onining Namangandagi shohidlari: arxitektura va odamlar**" nomli xalqaro grant loyihasida ishtirok etganligini ma'lum qilamiz.

Raximova Umidaxon Tursunaliyevna loyiha ishtirokchisi sifatida Namangandagi Chodak masjidi hamda Mavlono Lutfullo majmuasi tarixiga oid ilmiy maqolalarni tayyorlashda ishtirok etib, bu borada qimmatli foto va ma'lumotlarni taqdim etganligini ma'lum qilamiz. Raximova Umidaxon Tursunaliyevna grant loyihasi doirasidagi vazifalarni yuqori mas'uliyat bilan bajarib, faol ilmiy-mehnat bilan loyihaga munosib hissa qo'shdi.

Muzey direktori

t.f.d., prof. B. Hasanov